JAHON IQTISODIYOTI VA
DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

SILLABUS

Fan: Jamiyat va din

(SREL11C2/SREL12C2)

2026-2027

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
SIYOSATSHUNOSLIK KAFEDRASI

«Tasdiqlayman»
Akademik ishlar bo‘yicha
Birinchi prorektor
A. Umarov
2026-yil "28" 08

JAMIYAT VA DIN FANI SILLABUSI

(SREL11C2/SREL11C2)

Bilim sohasi:	300 000- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta’lim sohasi:	310 000-Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60310200-Xalqaro munosabatlar 60310100-Siyosatshunoslik
Bilim sohasi:	400 000-Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410 000-Biznes va boshqaruv 420 000-Huquq
Ta’lim yo‘nalishi:	60411100-Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar 60420100-Yurisprudensiya

Toshkent – 2026

Kreditlar miqdori:	**2 ECTS**
Ta’lim turi:	**Kunduzgi**
Soatlar (jami):	**50 soat** **Ma’ruza: 10 soat** **Amaliy mashg‘ulot: 10 soat** **Mustaqil ta’lim: 30 soat**
Ta’lim tili:	**O‘zbek, rus**
Semester:	**1, 2**
Kafedra:	**Siyosatshunoslik**
Ma’ruzachi:	**Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o‘g‘li - Siyosatshunoslik kafedrasi dotsenti, PhD.**
Ofis:	**A bino, 213-xona.**
Konsultatsiya kunlari:	**Chorshanba, 12:00-15:00**

Telefon: +99871 267 07 06 (135)
E-mail: muslimbekalijonov@uwed.uz

Taqrizchilar:

1. Sultanova E.S. Siyosatshunoslik kafedrasi professori, s.f.d.

2. Seitov A.P., siyosiy fanlar doktori

Kelishildi:

AO‘IO _____ **U. Dustov**

Fakultet dekani _____ **M. Abdullayeva**

Kafedra mudiri _____ **Sh. Abdullayev**

Ushbu sillabus O‘quv-uslubiy kengashning 2026-yil "28"- 08 dagi 2 - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Ushbu hujjat Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo‘lib, to‘liq yoki qisman nusxa ko‘chirilmasligi, tarqatilmasligi yoki ko‘paytirilmasligi, shuningdek, uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu material ko‘paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o‘zgarish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat’iyan man etiladi.

ANNOTATION

SOCIETY AND RELIGION

This course examines religion as a social phenomenon and explores its role in the relationship between individuals, society and the state. Students trace the development of religious beliefs from early forms of worship to national and world religions. They consider the historical settings in which religious traditions emerged and spread, and examine the roles religion has played in social life across different periods.

Students work with sources from Buddhism, Christianity and Islam, comparing the views of society expressed in these texts and interpreting them in their historical and cultural contexts. The course also examines contemporary relations between religion and the state, as well as the social consequences of religious fanaticism, radicalism and extremism. Through this work, students develop comparative analysis skills and learn to draw on evidence when discussing the place of religion in the contemporary world.

The course forms part of four undergraduate programmes: International Relations, Political Science, World Economy and International Economic Relations, and Jurisprudence.

АННОТАЦИЯ

ОБЩЕСТВО И РЕЛИГИЯ

Курс посвящён религии как общественному явлению и её роли во взаимоотношениях человека, общества и государства. Студенты прослеживают развитие религиозных представлений от ранних форм верований до национальных и мировых религий. Они рассматривают исторические условия, в которых складывались и распространялись религиозные традиции, и изучают, какие функции религия выполняла в общественной жизни в разные эпохи.

Отдельное место занимает работа с источниками буддизма, христианства и ислама. Студенты сравнивают отражённые в них

взгляды на общество и учатся интерпретировать религиозные идеи с учётом их исторического и культурного контекста. Курс также рассматривает современные отношения между государством и религией и общественные последствия религиозного фанатизма, радикализма и экстремизма. В ходе обучения студенты развивают навыки сравнительного анализа и учатся аргументированно обсуждать вопросы религии в современном мире.

Дисциплина входит в учебные планы бакалавриата по направлениям «Международные отношения», «Политология», «Мировая экономика и международные экономические отношения» и «Юриспруденция».

1. Fan tavsifi

Ushbu fan doirasida talabalar "Jamiyat va din" fanining asoslari, uning predmeti, tushunchalari, din va jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi, fanning kategoriyalari, davlat va din hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, milliy va jahon dinlari va ularning muqaddas manbalarida aks etgan jamiyat to'g'risidagi nazariyalar, diniy mutassiblik, ekstrimizm, radikalizm va terrorizmning jamiyatga tug'diradigan real xavflari haqida chuqur tasavvurga ega bo'lishadi. Egallagan bilimlarni amaliyotda to'g'ri qo'llay oladigan, globallashgan dunyoda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga baho bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashga e'tibor qaratiladi.

2. Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fan uchun prerekvizitlar talab etilmaydi.

3. Fanning maqsadi

Jamiyatimizning ijtimoiy hayotida dinning tutgan roli, dinlar tarixi, ijtimoiy munosabatlar, dinlarni ijtimoiy hodisa sifatida tahlil etish, uning turlari, kelib chiqish tarixi, tarqalishi, ijtimoiy hayot sohalari rivojida dinning ahamiyatini o'rganish asosiy maqsad qilib olingan. Shuningdek jahon dinlarining shakllanishiga asos bo'lgan dinning dastlabki ko'rinishlari – animizm, totemizm, fetishizm, magiya kabi dinlarning ibtidoiy jamiyat hayotida tutgan o'rni, milliy dinlar va ularning tarixi haqida to'liq ma'lumot beradi. Jahon dinlarni: xristianlik, buddaviylik va islom manbalarida jamiyat tushunchasi va unda ushbu dinlarning tutgan o'rni haqida ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Shu bilan birga diniy mutassiblik, ekstrimizm, radikalizm va terrorizmning jamiyatga tug'diradigan moddiy va ma'naviy xavflari to'g'risida talabalarga chuqur tarzda ma'lumotlarni berishni nazarda tutadi.

4. Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. Jamiyat va din tushunchalari to'g'risida hamda ularga oid nazariy qarashlar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish;
2. Dinning o'ziga xos funksiyalari va ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida to'laqonli tasavvurga erishish;
3. Qadimgi milliy dinlar, ularning shakllanish tarixi, hamda muqaddas kitoblarida jamiyat hayotiga doir keltirilgan fakt va mulohazalarni adolatli va xolis tarzda baholay olish;
4. Jahon dinlari hamda uning muqaddas manbalarida jamiyat bilan bog'liq masalalarni tahlil eta olish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Asoslantirilgan nazariy bilimlar vositasida diniy mutaassiblik va radikalizm, hamda diniy ekstrimizm va terrorizm kabi yovuz g'oyalarga qarshi ma'naviy va mafkuraviy immunitetni hosil qilish;
6. Tahlil, sintez, induksiya, fikrlash tajribasi, empirik: anketa so'rovi, kuzatish kabi tizimli, qiyosiy, umummantiqiy kabi umumfan usullardan foydalana olish.

5. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

I. Mustaqil ish talabalarning ushbu fan bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida olib boriladi va oldindan tanlab olingan maxsus adabiyot bo'yicha esse yozish uchun zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni yakka tartibda o'rganishni nazarda tutadi.

Talabalar uchun mustaqil ishning ushbu shakliga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat: (1) mustaqil ta'lim uchun berilgan adabiyot bo'yicha esse yozish; (2) ishni baholashda quyidagilar e'tiborga olinadi: mustaqillik, ijodkorlik (tahliliy yondashuv, g'oyalarni shakllantirish, muammoni qo'yishning yangiligi, muammoni hal qilishga e'tibor berish), taklif qilingan qoidalarning asosliligi; (3) stilistika (umumiy savodxonlik, matnni tushunish qulayligi); (4) esse: **hajmi – 800 (±10%) ta so'z; shrift – Times New Roman; interval – 1,5; kegel – 14;** (5) taqdimotning izchilligi.

II. Talaba 2 ta mustaqil ishni belgilangan muddatdan kechiktirmay individual topshiriqlar shaklida (muammoni tadqiq qilish asoslarini aniqlash, amaliy tadqiqotlar asosida metodologiya, metod va tadqiqot usullarini tanlash, ijodiy materiallar tayyorlash: prezentatsiya orqali va h.k.).

Talabalar barcha topshiriqlarini o'z vaqtida topshirishlari kerak. Muddati o'tkazib yuborilgan topshiriqlarni qayta topshirishga ruxsat berilmaydi

6. Talabalar bilimini baholash

Baholash tizimi	Raqamli qiymat	Foiz ko'rsatkichlari	
	5	90-100%	Joriy baholash-30%
	4	70-89%	Oraliq nazorat 30%
	3	60-69%	Yakuniy imtihon 40%
	2	0-59%	

Talabalar barcha topshiriqlarini o'z vaqtida topshirishlari kerak. Muddati o'tkazib yuborilgan topshiriqlarni qayta topshirishga ruxsat berilmaydi.

7. Adabiyotlar

I. Asosiy adabiyotlar

1. Qirg'izboyev M. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Navro'z, 2019. 456 b.
2. Xodjaev O. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2021. 224 b.
3. Jalilov B. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. 148 b.
4. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: OOO "Complex print", 2020. – 198 b.
5. Kamilov D. Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2021. –128 b.
6. Victor W. Watton (Author), Robert M. Stone (Author). Religion and Society Paperback – January 1, 2009. - P. 126.
7. Alice Roberts. Domination: A History of Christianity. 2025. Bloomsbury Publishing - P. 338.
8. Komilov N. Tasavvuf. – T.: "Movarounnahr" nashriyoti. 2009. – 445 b.
9. Steve Bruce. Religion and Society: Sociological Approaches. 2023. Polity Press. – P. 320

II. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Muxtarov A., Sultonov T. Globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari. – Toshkent –"Iqtisodiyot", 2021. – 56 b.
2. Bryan S. Turner. The Sociology of Religion: A Global Introduction. 2024. Wiley-Blackwell. – P. 400
3. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Innovasiya-Ziyo, 2021. – B. 314-499.
4. Buxoriy S.S. Bahouddin Naqshband va yetti pir. – T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti. – 24 b.
5. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. – T.: "Sharq" nashriyoti. 2022. – 208 b.
6. Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi". 2024. – 464 b.
7. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya: Yordamchi o'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir A.Hasanov. –Toshkent: "Movarounnahr", 2016. – 672 b.
8. Saifnazarov I., Obidov A. Dinlararo hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik omili. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2018.-136 b.
9. Raximjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2021. – 304 b.

8. Fanning tarkibiy tuzilishi

№	Mavzular	Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlar rejasi (adabiyotlar)	Asosiy adabiyot	Qo'shimcha	Soatlar		
					Ma'ruza	Amaliy va seminar	Mustaqil ta'lim
1.	1-mavzu. "Jamiyat va din" fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari.	"Jamiyat va din" fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari. Fanning asosiy tushunchalari, ilmiy-metodologik asoslari.	1/2, 3	8,11	2	2	6
2.	2-mavzu. Buddizm va xristian dinlarining shakllanish tarixi va asosiy g'oyalari	Buddaviylikning paydo bo'lish tarixi va uning asoschisi. Tripitaka buddaviylikning muqaddas manbasi. Buddaviylik talimotlarida olam, inson va jamiyat haqidagi g'oyalar. Xristianlikning paydo bo'lishi va tarqalishi. Xristianlikning muqaddas kitobi va unda jamiyatga daxldor g'oyalar	3/4, 5	10,11	2	2	6
3.	3-mavzu. Islom dinining tarixi va mohiyati, manbalari, aqidaviy maktablari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati	Islom dinining paydo bo'lishidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sharoitlar. Qur'on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi va ushbu ilmlarning musulmon jamiyati taraqqiyotida tutgan o'rni. Diniy ekstrimizm va terrorizmning jamiyat taraqqiyotiga bo'lgan real tahdidi.	4/5, 6	1,5,8	2	2	6
4.	4-mavzu. Tasavvuf ta'limotining Sharq madaniyatiga ta'siri	Tasavvuf ta'limotining shakllanish tarixi, mohiyati va asosiy g'oyalari. Yusuf Hamadoniy ta'limoti, Kubroviya, Yassaviya va Naqshbandiya tariqatlarining ijtimoiy ahamiyati. Zamonaviy tasavvuf tariqatlari hamda ularning bugungi kun musulmon jamiyatlarga ko'rsatayotgan ta'siri.	6/7, 8	4,5,6	2	2	6
5.	5-mavzu. Diniy ekstremizm va terrorizmning tarixi hamda dunyoviy va diniy bilimlar mutanosibligini ta'minlashning ahamiyati	Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag'rikenglikning shaxs kamoloti va e'tiqod erkinligini taminlashdagi roli. Dun'yoviy va diniy bilimlar mutanosibligiga erishishda sekulyarlashuvning o'rni. Dunyoviy hayot va diniy qadryatlarning mutanosibligiga erishishning yoshlar tarbiyasiga ta`siri.	3/5/9	7,8,11	2	2	6
Umumiy					**10**	**10**	**30**

9.Amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar

Baholash turlari	Maks. ball	Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar	Muddati
1-vazifa	10	Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat hayotida dinlarning o'rni mavzusida prezentatsiya tayyorlash.	3-hafta yakuniga qadar
2-vazifa	10	"Islom dinining tarixi va mohiyati, manbalari, aqidaviy maktablari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati" mavzusi bo'yicha "Diniy mutaassiblikka qarshi muhim asarlarni yozgan movarounnahrlik olimlar" mavzusida esse yozish.	4-hafta yakuniga
Seminar mashg'ulotlarida ishtirok etish	10	Seminar mashg'ulotlarining barchasida ishtirok etgan talabalarga 10 ball beriladi. Har bir qoldirilgan (uzrsiz) dars uchun 20% (2 ball) olib tashlanadi.	
Oraliq nazorati	10	Mustaqil ta'lim uchun berilgan adabiyotlar bo'yicha esse yozish: 2. Samuel Hantingtonning "Sivilizatsiyalar	5- hafta yakuniga qadar

		to‘qnashuvi va yangi dunyo tartibi” nomli maqolasi bo’yicha.	
Yakuniy nazorat	**40**	Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizmga qarshi samarali kurash va dunyoviy davlatchilik g‘oyalari mavzusida yakuniy yozma ishi.	
Jami	**100**		

10.Akademik talablar

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabat samimiy va beg‘araz bo‘lishi lozim. Talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda o‘quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi.

Plagiatning har qanday turi qat‘iyan man etiladi. Shu tarzda topshirilgan topshiriqlar 0 ball hisoblanadi va qayta topshirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. O‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 75 foizdan past bo‘lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi.

Har qanday baholangan topshiriqni bajarishda talabalarga quyidagilar taqiqlanadi:

– boshqa talabalar bilan ishlash va bir xil ishni yuklash (insholar, loyiha ishi, topshiriqlar va boshqalar);

- kitoblar yoki Internetdan boshqalarning asarlarini, ishlarini, tadqiqotlarini va g‘oyalarini nusxalash va ularni o‘ziniki sifatida topshirish.

Belgilangan muddatdan keyin taqdim etilgan ishlar, kechikish sabablaridan qat‘iy nazar, qabul qilinmaydi va muddatlarni o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Darslar davomida noutbuk, smartfon va boshqa shaxsiy elektron vositalardan foydalanish taqiqlanadi. Bunday vositalar kerak bo‘ladigan mashg‘ulotlar paytida o‘qituvchi ruxsati bilan ishlatish mumkin.